

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO – TEXNALOGIYA INSTITUTI
“OZIQ – OVQAT MAXSULOTLARI TEXNALOGIYASI”
FAKULTETI

MALAKA BITIRUV ISHI

MAVZU: YILIGA 1MLN DAL PIVO ISHLAB CHIQRISH

Bajardi: 32 – 09 guruh talabasi

Aliyeva Nozimaxon

Raxbar: Sharafuddinova Nozimaxon

Toshkent – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I. NAZARIY QISIM

1.1.Ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy nazariy asoslari.....	5
1.1.2.Asosiy ishlab chiqarish texnologiyasi va texnik vazifalari.....	10
1.2.1.Asosiy uskunaning ishlash prinsipi va uning izohi.....	14
1.3.Foydalangan xom-ashyolar tavsifi.....	17
1.3.1.Solod.....	17
1.3.2.Xmel.....	17
1.3.3.Suv.....	19
1.3.4.Achitqi.....	20
1.4.1. Yordamchi materiallar, chiqindilar va ulardan foydalanish	22

II. HISOBLASH QISMI

2.1.Uskunalar hisobi (asosiy, qoshimcha va yordamchi uskunalar).....	23
2.2.Maxsulotlar hisobi.....	31
2.3.Uskunaning issiqlik hisobi(gidravlik va mexanik hisoblar).....	37
2.4.Ishlab chiqarishning texno –kimyoviy nazorati.....	43

III. AVTOMATLASHTIRISH, MEHNAT MUHOFAZASI VA

IQTISODIYOT QISMI

Asosiy uskunani avtomatlashtirish.....	48
Mehnat muhofazasi.....	51
Fuqaro ximoyasi.....	54
Atrof-muhit muxofazasi.....	58
Iqtisodiyot qismi.....	64
Xulosa	67
Foydalangan adabiyotlar.....	68
Ilova.....	70

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mutaqlil bo'lgandan beri oziq- ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Shu jumladan pivo ishlab chiqarishning tarmog'ida ham respublikamizani deyarli barcha viloyatlari oziq- ovqat uyushmalari ga qarashli barcha korxonalar o'z korxonalarini ishini qaytatdan ko'rib chiqib davr talabiga javob beruvchi va rag'batbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun imkoniyatlaridan foydalangan holda qo'shma korxonalar ochmoqdalar.

Pivo kam alkogollik , jilvali, xmelga hos bo'lgan hidga va yoqimli taxir mazali ichimlik .

Uni ishlab chiqarish uchun asosiy hom ashyo arpa solodi, xmel va suv hisoblanadi. Ayrim navli pivolarni ishlab chiqarish uchun solod bilan birga yordamchi maxsulot ham ishlatiladi.

Bular: maydalangan arpa, maydalangan guruch yoki guruch oqshom, yog'sizlantirilgan jo'xori yormasi yoki yog'sizlangan soya uni qoshiladi.

Pivo asosan och rangli, to'q rangli va alkagolsiz navlariga bo'linadi. Och rangli piva navlariga quydagilarni misol qilib olishimiz mumkun: "Satbast", "Baltika", "Tuborg", "Patriot", "Qibray 1", "Miller", "Heniken" va boshqalar kiradi.

To'q rangli pivalarga esa quydagilar; "Qibray 8", "Olmaliq", "Satbast strong" va boshqalarni misol qilib olishimiz mumkun.

Har bir nav pivo standartiga ko'rib chiqilgan aniq rangga tarkibidagi alkogol va ekstraktiv moddalar miqdoriga qarab tavsiflanadi.

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab turli hil pivolar tarqalmoqda istemol qilishga talab oshib bormoqda.Pivo aholining har xil qatlamlari orasida O'zinig betakror mayin ta'mi bilan mashhurdir. XIX asr boshidagi pivo dunyoni egallashni davom etmoqda. Oddiy so'z bilan aytganga pivo dunyoni ichimligi deb ham hisoblasa bo'ladi. Pivo ishlab chiqarish esa internet ponasonic va boshqa

mashhuratamalar bilan bir qatorda turishining o'zi global ekonomikaning yaqqol misolidir.

Pivo ishlab chiqarish haqiqatdan ham dunyoviy harakatlarga ega bo'lmoqda. Hozirda dunyoning faqatgina 20 mamlakatida pivo ishlab chiqarishmaydi.

Pivo ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish bo'yicha dunyoda ko'p yillardan beri Shimoliy Amerika va Yevropa yetakchik qiladi.

AQSH da pivoning o'rtacha yillik iste'moli aholining inson boshqa tahminan 100 l ni tashkil qiladi. Evropada esa 88 l, boshqa pivo ishlab chiqarish ananaga aylangan davlatlarda esa bunday ko'rsatkichlar 120 l ga yetadi. Birgina Bavariyaning o'zida 240 l dan ortiqroq Chexiya va Slovakiyada 138 l, Evropa mamlakatlarida ishlab chiqariladigan pivoning miqdoridan yuqoriroq. Bunga misol qilib Chexiyani keltirish mumkin. U o'zinig aholisining soniga qaraganda dunyoda eng ko'p pivo ishlab chiqaradi ya'ni o'rtacha yillik hisobiga 1 kishiga 160 l pivo to'g'ri keladi.

Pivo kam alkagolli jilvanuvchi ta'miga ega bo'lgan va chanqoq bosuvchi ichimlikdir. Pivo ishlab chiqarish uchun asosiy hom ashyo solod, xmel va suv, pivo tarkibidagi ekstraktiv moddalarning spirt miqdorining boshlang'ich suslosinig zichligi tarkibida 90 % suv , 28,6 % ekstraktiv moddalar bo'ladi.

Pivo undirilgan arpagan tayyorlangan aralashma , xmel, suv va pivo achitqisi qo'shilib spirtli achitish yo'li bilan tayyorlangan ichimlik hisoblanadi.

Pivoning turiga qarab unig tarkibida 4% dan 10 % gacha tez hazm bo'ladigan ozuqaviy moddalar asosan, uglevodlar, aminokislotalar mineral moddalar bo'ladi.

Ishlab chiqarishni fizik – kimyosining nazariy asoslari.

Piva sharbati olishda solod, arpa va boshqa undirilmagan mahsulotlar ishlatiladi. Demak piva sharbatini olish uchun donli mahsulotlar ishlatilar ekan. Bu donli mahsulotlarni barchasi selyuloza qobiq eldoskaridaldan tashkil topgan. Doim bu ikkinchi komponenti fizik kimyoviy hossalarga ega.

Qobiq qismi – seluloza tarkibida bo'lgan uglevodga boy moddalar va kul moddalardan tashkil topgan.

Qobiq qismi – gemiselilozali va peptin moddalardan tuzilgan qobiq qismining selilozadan iboratligini inobatga oladigan seluloza suvda erimaydi, ishqalanish jarayonida kirishmaydi, lekin qobiq ichidagi ochlovchi va taxir moddalar suvda erib piva sharbatini ta'miga va rangiga yomon tasir ko'rsatadi. Shuning uchun hozirgi texnologiyada – solodning ekstraksiyalanishi, 78.9% bo'lsa uning ekstraktivligi, 88.9% mayda yormaniki – 15.3% yirik yormaniki esa 22.2%.

Filtirlanish tezligi drobila qatlamining qalinligiga yoki maydalangan solodning hajmiga bog'liq. 100 gr solod taxminan 180 ml hajmini tashkil etadi.

Agar solod un holatida maydalansa (50 – 60 %) 210ml, agar juda maydalansa 200 ml, agar yirik maydalansa (20 – 25 %) un mahsulot hajmi 240mlni tashkil etadi. Yirik maydalangan solod uchun filtratsion apparat ishlatiladi. Mayda yanchilgan solod uchun filto press ishlatiladi.

Zator filtratsion apparatida filtirlansa yanchilgan moddalar miqdori quyidagicha bo'lishi lozim.

Sheluha – 15 – 18 %

Yirik yorma - 12 – 15 %

Mayday yorma – 30 – 35 %

Un qismi – 25 – 35 %

maxsulotlar bir hil maydaliniyadi. Agar bir hil bo'lmasa butun donlar maydalagichlar orasidan o'tib ketadi. Solod ekstraktining asosiy komponentlari – kraxmal uglevod va oqsillar.

Eldosperidagi bu moddalarni maydaroq maydalash kerak. Eldosperidan un va mayday yorma olinadi.

Solod va arpali birday yanchilishidan sheluha, yirik yorma, mayday yorma va un qislari ajratiladi. Un va yirik yormaning quruq moddalardan hosil bo'lgan ekstrakt ishqalanish jarayonida fermentlar ishtrokida oson parchalanib eritmaga to'liq o'tadi. Yirik yormaning quruq yormalari ishqalanish jarayonida suv qiyin shimiladi. Fermentning parchalanish tasiri qiyin boradi. Erimagan entrakt drobilaga aylanib ekstraktligini oshiradi.

Eritmaga o'tadigan ma'lum sharoitda edospermali faol qismi sheluhada ushlanib qoladi. Misol qismga joylashgan bo'ladi. Jarayonning yengillashtirish uchun don oldindan tayorlangan bo'lishi kerak. Endosperini qattiq moddalardan tozalash uchun, qobig'i yaxshi maydalanish kerak aks holda yaxshi maydalanmagan qattiq moddalar bir biriga elimlanib suv va fermentlarni harakatini sekinlashtiriladi. Natijada piva qoldig'iga aylanib ish unumi pasayadi.

Solod va arpa maydalanganda yirik yorma mayday yorma un va sheluhaga ajraladi. Yirik yorma – donning qismlaridan hosil bo'lib, erish qiyin bo'ladi shuning uchun yirik yormaning miqdori b'kamroq bo'lishi kerak.

Mayda yorma va uning erishi va qaydlanishi yaxshi kechadi. Agar bularning miqdori ham ko'p bo'lsa filtirlash jarayoni qiyin kechadi. Solod va arpa maydalanishidan oldin navlarga ajratilishi kerak. O'lchamlar bir hil bo'lgan uchrab undagi quruq moddalarning hammasi eritmaga o'tadi. Filtir prograssdan chiqqan zator tarkibidagi solod va arpaning quruq moddalarining malum qismi erimay qoladi. Erimay qolgan qismi – zatorni changa qo'yib eritadi.

Eldosperi oqsillar, uglevodlar fermentlar va qattiq moddalardan tashkil topgan. Doimi undirishdan maqsad faqat kurtagini ulishi bo'lmay bayli eldosperida jaoylashgan farmentlar aktivligini oshirishdur.

Eldosperida fermentlar teng taxsimlangan. Eldosperining markaziga aylanmasada fermentlarning miqdori yuqori.

Eldosperining tarkibida erimidigan qattiq moddalar xam mavjud bo'lib ular maydalash jarayonida xalaqit qiladi. Misol uchun: valiklar orasidagi qisqa tirqishlari donning uchidan ko'ra qornini yaxshi maydalaydi.

Doning qobig'ini butunligicha saqlash uning tarkibidagi moddalarni eritmaga o'tishini kamaytirish nazarga olinadi.

Piva sharbatini tayorlashda donli maxsulotlarni maydalab maydalash davrida donning qattiqligicha va elastikligicha ta'sir qiladi. Qobiqqa nojo'ya ta'sir qilishini oldini olish uchun donli solodni namligi muxum ahamiyatga ega.

Agar solodni namligi 3 % bo'lsa mayday yanchiladi. Agar 6 % bo'lsa apparatning bosimiga ta'sir qilib uning miqdorini kamaytiradi. Shuning uchun solod va donning 4 – 5 % bo'lsa ish unumli yaxshi bo'ladi.

Mayday yanchilgan dondan zator tayorlanganda donning estaksiyasi to'liq eritmaga o'tmaydi. Chunki mayda holda maydalangan yanchilma arpa va solod unga aylanadi. Bu yanchilma uchun filtr shart emas u filtr presdan o'tkaziladi.

Agar filtr perssda filtirlansa.

Sheluxa – 9 – 12 %

Yirik yorma – 12 – 15 %

Mayda yorma – 30 – 35 %

Un qismi – 40 – 45 %

Bo'lishi lozim.

Bu qismlarning tarkibi tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Shuning uchun solodning maydalanish darajasi boshqarib turiladi.

Zator tayorlash jarayoni deb solod va solod bo'lmagan materiallarni aralashtirish jarayoniga aytiladi. Bu aralashma zator deyiladi. Zator tarkibida qand moddalar piva sharbati olishda juda muhim. Qo'shilayotgan suvni ishqorliligi ham fermentlar riekisiyasiga ta'sir qiladi. Agar suvni shqorligi yuqori bo'lsa zator tayorlashdan oldin unga sut kislotasi qo'shiladi. Protoolitik fermentlar murakkab oqsil moddalarni eruvchan azot moddalarga parchalaydi.

Arpani undirishda boshlangan bu fermentativ jarayonlar “Zatireliyada” ham davom etadi, ammo qulay sharoitda va suv ko’p miqdorda bo’lganligi sababli ushbu jarayonlar juda tez kechadi. Muhit PH 4, harorat zator tayyarlash jarayoninig eng muhim fizik omilllaridir .Harorat ozgarishi bilan jarayoni saqlashda umumiy bogliqlik bor. Malumki azotli maoddalarni toliq parchalanishi 45-50 C darajada amalga oshadi.

Oqsilli aminakislatalarni parchalanishida eng qulay harorati 50 C , 70-75 % haroratda , kraxmal tez parchalanadi. Zatorni kop yoki qaynatilishi fermentativ tasirini belgilidi.

Kraxmalni suvda kristalalanadi , song fermentlar tasirida dastlab suyuladi, keyin dekstriniga va malto’zaga aylanib shira tortadi.

Piva ishlab chiqarishda fermentativ parchalinishiga quydagi talablar qo’yiladi.

Kraxmalni parchalash darajasi chuqur o’tishi lozim, sharbatni yo’d bilan rangli reaksiya boradigan dekstrin moddalar bo’lmasligi kerak.

jadval

Asosiy ishlab chiqarish texnologiyasi

Asosiy

Texnologik sxemaning izohi


Solod korxonaga avtotransport yordamida yoki vagonlar orqali keltiriladi va donni qabul qilish bunkeriga tortilgandan so'ng to'kiladi. U erdan solod noriya bunkerga o'tkaziladi va tarozida tortilib lentali transportyor yordamida sinflarga taqsimlanadi. Agar solod yangi quritilgan bo'lsa kamida 1,5-2 oy saqlanishi kerak. Texnologik jarayon uchun kerak bo'lgan solod lentali transportyor yordamida uzatish qurilmasi yordamida bo'shatuvchi qurilmaga uzatiladi va tarozida tortib bunkerga solinadi. Pivo ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyoga (15%) yodamchi material (gurich oqshog'I qo'shiladi.) ishlatiladigan solodni ustidagi qobiq qavatiga ishlov berish uchun jilo beruvchi mashinaga uzatiladi. Jilo berilgan solod bunkerga tushadi va undan chiqqan kerak (chiqindi) bunkerga yeg'iladi. Solodni maydalashdan avval kerakli miqdordagisi tarozida tortib olinadi va don maydalagichga uzatiladi.

Donni maydalash uchun bitta don valkovkali maydalagichdan foydalanamiz. (don maydalagichlar 2,4,6 valkovkali bo'ladi). Maydalangan don 4ta fraksiyaga oshiriladi (yirik yorma, mayda yorma, un qilish va qobiq qavati). Donni maydalashda solodni qobiq qavati maydalanib ketmasligi kerak. Agar zotor filtrchanda filtrlansa un qismi kamroq filtrpressda filtrlansa un qismi ko'proq bo'lishi kerak. Maydalangan solod bunkerda yeg'iladi.

Zator tayyorlash uchun guruch oqshog'I qo'shilganligi sababli qozonga keltirilgan guruch oqshog'I tortilib bunkerga solinadi. Zator tayyor vaqtida 85% maydalangan solod va 15% guruch oqshog'i qo'shib tayyoqlanadi. Zator 2 xil usulda: damlama va qaynatma usulida tayyorlanadi. Qaynatma usulining o'zi 3 xil rejimda olib boriladi, ya'ni bir, ikki va uch qaynatmali: damlama usul asosan sifati yuqori solodda zator tayyolanganda qo'llaniladi. Qaynatma usulining bir qaynatmali usuli ham yuqori sifatli solod ishlatilganda qo'llaniladi. 3 va 3 qaynatmali usuli esa sifati past soloddan zator tayyolanganda yoki to'q rangli pivo ishlab chiqarishda ishlatiladi.


Maydalangan solod va giruch oqshog'I zator tayyorlash qozoniga solinadi va zator tayyorlanadi. Bunda zatorga 1:4 nisbatda suv solinadi va zator shira tortishga tayyorlanadi. Zatorni tayyor bo'lganligini yodli namuna orqali aniqlanadi ya'ni 1 tomchi zatorga 1 tomchi 0,1H/2 eritmasi tomiziladi. Agar I₂ rangi o'zgarmasa zator shira tortgan deb hisoblanadi: 1 zator tayyorlash 42-47°C suvda maydalangan solod solinadi va harorat 51-52 °C gacha yetkaziladi va 30 minut qismi pauza qilinadi. Shundan so'ng zatorning harorati 61-63 °C ga ko'tariladi va shu haroratda 20 minut ushlab turiladi so'ng haroratni zudlik bilan 70-72°C gacha ko'tariladi va zator shira tortguncha shu haroratda ushlab turiladi (shira tortish davomiyligi sifatni solod un 10-15 minut, sifati pastroq solod un 20-25 minutni tashkil etadi) so'ng zatorni suyuq qismini quyuq qismidagi agregatni filtr chan ga uzatamiz. Filtrlash davomiyligi 1,5-2 soat davom etadi. Filtrdan chiqqan sharbat sharbat qaynatish qozoni ga uzatadi, sharbat quyish bilan 1,5- 2 soat qaynatiladi. Sharbatning zichligi yetarli darajaga yetgach sharbat nasos orqali gidrosiklon ga uzatiladi.

Sharbat tarkibidagi cho'kmalar ajratib olinadi va tiniq sharbatni sovutish uchun 2x seksiyali plastinkaliissiqlik almashinish uskunasiga beriladi. Sharbat 6-8 °C gacha sovutiladi va SKT uskunasiga beriladi. Bu uskunada bijg'itish va bijg'itishni davom ettirish 1-uskunada o'tkaziladi. Bijg'ish jarayoni 12-13 kun davom etadi. Tayyor pivo separatoridan o'tgandan so'ng filtrda filtrlanadi va bunker ga yeg'iladi. Tayyor pivo kamida 4 soatdan so'ng quyishga beriladi.



Pivoni ishlab chiqarish liniyasi

Asosiy uskuna “ Big’g’ish chani” ni izohi



Bijg'ish chani kvas, pivo va boshqa

bijg'itiladigan mahsulotlar uchun

moljallangan.

Uskuna:

Bijg'ish chani silindir uchli, (1) ta

sfericheskiy qopqoq, snabjonnoy

rubashkoy: (2) silindir simon tarafda va (4) ta konicheskiy tomonlarda

joylashgan bo'lib u suslo va kvasni sovutishga yordam beradi.

Bijg'ish chanining pastki qismida drojjini ajratadigan va aralashtirgich joylashgan.

Uskuna (3) tubalari mavjud undan dioksid uglerod chiqib ketishu uchun va yuvish aralashtirmasini yuvorishga moljallangan.


Va (5) kombinirlangan zakvaskani va tayyor mahsuloti chiqishiga yana (6) bo'lsa uskunani mahkamlash uchun mo'ljallangan.

Uskuna ishlash prinsipi.:

Tayyor 26-30 °C pivo suslasini bijg'ish chaniga gaz vinteli ochiq holatda perekachka qilib olinadi. Tezroq bijg'ish uchun unga 26-30 °C li pivo suslasiga sut kislotasi va pivo achitqisini qo'shishadi. Uni ko'piklanib ketmasligi uchun pivo suslosini bijg'ish uskunasi tagi qavatdan yuboriladi. Bijg'ish jarayonida pivo suslasini malum bir temperaturada saqlash lozim. bijg'ishni tsentrobejniy nasos orqali aralashtirib turiladi har 2 soatdan keyin 30 minut mobaynida

Asosiy uskunaning texnik harakteristikasi :

1. SKTmarkali uskuna SKT -9,5
2. Sig'imi- $9.5 m^3$,
3. Diametri- 1400mm,
4. Gabaritlari:
 - a. Uzunligi- 7100mm
 - b. Eni- 2000 mm
 - c. balandligi 7100 mm



Xom ashyoni tasnifi

Solod

Solod ishlab chiqarish korxonalaridan yoki boshqa pivo ishlab chiqarish korxonalaridan keltirilgan yangi quritilgan solod uzoq muddat (1,5-2 oy) saqlanadi.

Pivo ishlab chiqarishda ishlatiladigan solodni sifat ko'rsatgichlari: har 100 kg tozalangan va navlarga ajratilgan arpadan 78 kg solod olinishi uning namligi 5-6% rangi bir tekisda och sariq rangda, xidi esa solodga xos hidga va shirin mazaga ega, uning naturasi 490-600 g/l bo'lishi, ekstraktivligi 70-75 % bo'lishi kerak.

Solod naturasi 4 guruhga bo'linadi.

1. Juda yengil 450-500 gr /l
2. Yengil 500-530gr /l
3. Yaxshi 530-560gr/l

Og'ir 570 gr/l va unda yuqori bo'ladi.



Xmel

Xmel ko'p yillik o'simlik. U tutdoshlar sinfiga kiradi. Uning asosini gullari tashkil etadi, lekin uning gullari urg'ochi va erkak gullariga bo'linadi. Bu gullar alohida –alohida tuplarda bo'ladi. Pivo ishlab chiqarish uchun asosan urg'ochi xmel tuplari ko'paytiriladi. Xmelning turlari:

HALLERTAU MITTELF RUECH

HEREBRUCKER

PERTE

SPATTER

TETTNANGER

NORTHERN BREWER

BREWERS GOLD

NUGGET

TARGET

HALTERTAUER MAGNUM

Xmelning kimyoviy tuzilishi		Xmel korxonaga
Namlik, %	10	presslangan holda qo'sh
Umumiy smolani tarkibi, %	15	qoplarda (ichki qop yupqa
α -kislota, %	2-10	matodan, tashqi qop dag'al
β -kislota, %	1-10	matodan bo'ladi) yoki
Xmel yog'i, %	0,5	ballotlarda keladi. U quruq
Polifenol, %	4	qorong'u xonalarda 0,5 – 2 °C
Protein (N x 6,25), %	15	da saqlanadi. Xaroratning
Kul miqdori, %	8	yuqori bo'lishi, xonadagi
Selyuloza, %	40	namlikning ortishi va xonaga
		quyosh nurini tushib turishi

xmelni sifatni buzilishiga olib keladi.

Pivo ishlab chiqarishda ishlatiladigan yordamchi materiallar tarkibiga donli maxsulotlar: maydalangan arpa, arpa uni, maydalangan guruch, yog'sizlangan soya uni, shakar kiradi. Bu yordamchi mahsulotlardan ayrim pivo navlarini o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ta'minlash bilan birga iqtisodiy sarfni kamaytirish maqsadida foydalaniladi.

Yordamchi materiallarniqayta ishlash solodga nisbatan qiyinroq, chunki ular tarkibida deyarli fermentlar bo'lmaydi. Ularni unli qismi eruvchan emas, shuning uchun ularga dastlab solod fermentlari bilan ishlov beriladi va qaynatiladi. Shundan so'nggina soloddan tayyorlangan zator bilan aralashtiriladi.

Suv

Suv – tiniq, rangsiz, yoqimli mazaga ega, u begona hidlarsiz va ta'mga va zararli mikroorganizmlar bilan zararlangan bo'lmazligi kerak.

Bundan tashqari uning kimyoviy ko'rsatkichlari: qattiqligi, ishqoriyligi, oksidlanuvchanligi va quruq qoldiq miqdori tarkibida cho'kma bo'lmazligi bilan ham talabga javob berishi kerak.

Suvning qattiqligi. Tabiiy suvning xususiyati uning tarkibidagi eruvchi kaltsiy va magniy tuzlarini miqdorini aniqlash bilan aniqlanadi va bu suvning qattiqligi deyiladi.

Suning qattiqligi 1 l suv tarkibidagi ununiy kaltsiy va magniy ionlarining mg-ekv. miqdori bilan tafsiflanadi. Bir litr suv tarkibida 1,5mg-ekv kaltsiy va magniy ionlari bo'lsa, bu suv juda yumshoq suv, 1,5 – 3 mg-ekv bo'lsa yumshoq, 3 – 6 mg-ekv o'rtacha qattiqligidagi suv, 6 – 10 mg-ekv qattiq, 10mg-ekv.dan ko'p bo'lsa juda qattiq suv deyiladi. Qattiq suvlarni ishlab chiqarishda ishlatishdan oldin ularga qayta ishlov berilib, kaltsiy va magniy ionlari olib tashlanadi va shu yo'l bilan suv yumshatiladi.

Suvning qattiqligi 3 xil bo'ladi: vaqtinchalik, doimiy va umumiy qattiqlik.

Suning ishqoriyligi. Suvning bu ko'rsatkichi 1 l suvdagi OH^- ; CO_3^{2-} ; HCO_3^- mg-ekv ionlarini va ayrim kuchsiz kislotalarning anionlarini kislotali bog'larini ifodalaydi.

Suvning umumiy ishqoriyligi tabiiy suvlarning sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Suvning oksidlanuvchanligi deb suv tarkibidagi tiklovchi moddalarni oksidlash uchun sarf bo'lgan oksidlovchilarning miqdoriga aytiladi. Suvning oksidlanuvchanligi 2 xil bo'ladi: umumiy va qisman oksidlanuvchanlik.

Quruq qoldiq miqdori (suxoy ostatok) suvning umumiy sifat ko'rsatkichlaridan biri suvning quruq qoldiq miqdori hisoblanadi. Ya'ni 1l suvni bug'latib 105 – 110°Cga o'zgaras massagacha ko'tarilgan miqdoriga aytiladi va u mg/l da ifodalaniladi. Ichimlik suvida quruq qoldiq miqdori 1000 mg/l dan oshmasligi kerak. Biologik ko'rsatkichlari. Suv ko'p sonli virus va barteriyalarni

ko'payidhi uchun ozuqa muhiti hisoblanadi. Suvni sifat ko'rsatkichlari anqilanganda uning bakteriyologik ko'rsatkichi ham aniqlanadi.

Ichimlik suvining (vodoprovod) 1ml ida bakteriyalar soni 100 tadan oshmasligi kerak. Suv tarkibidagi karbonatli mihitini o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Na_2CO_3 , MgCO_3 , CaCO_3 karbonat va bikarbonatlar suvda eriganda sharbatni pH ini oshiradi va ishqoriy reaksiya beradi. Bunda gips qo'shilib karbonatlarni neytrallash ta'sirini yo'qotish mumkin. Ammo gipsni miqdori ko'payib ketsa, kaliy va magniy taxir sulfatlari hosil bo'lishiga olib keladi. (K_2SO_4 , MgSO_4) bu esa ichimlikning ta'mini yomonlashtiradi.

Pivo ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar uchun suv neytral reaksiyaga yaqin bo'lishi kerak. Bunda suvning PH i 6,8 – 7,3 ga umumiy qattiqligi 5–6 mg-ekv/l dan oshmasligi, oksidlanish darajasi 1–2 mg/l dan katta bo'lmasligi, quruq qoldiq miqdori esa 600mg/l dan oshmasligi kerak.

Oq rangli pivo ishlab chiqarishda yumshoqroq qattiqlikdagi suvni ishlatish tafsiya qilinadi. Bunda suvning vaqtinchalik qattiqligi 0,71mg-ekv/l, doimiy qattiqligi 0,36 – 0, 72 mg-ekv/l atrofida bo'lishi kerak.

Agar suv ishlab chiqarish talablariga javob berilmasa, u holda suvga qayta ishlov berilib, keraksiz moddalarni olib tashlanadi. Suvga ishlov berishdan maqsad tayyor mahsulotni sifatiga va texnologik jarayonlarni borishiga ta'sir etuvchi tuz va keraksiz moddalarni ajratib olib tashlashdir.

Achitqi.

Achitqilar suyuqlik sirtida va suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilarga bo'linadi. Har bir guruxning bir nechta alohida rasalari (irqlari) mavjud.

Suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilar jadal bijg'ish jarayonida bijg'iyotgan suyuqlikni sirtiga qalin ko'pik qatlami hosil qilib ajralib chiqadi va bijg'ish jarayoni tugaguncha shunday holatda bo'ladi. Keyinchalik ular cho'kmaga tushadi biroq ular bijg'itish tanklarini tagiga ba'zan quyuk cho'kma beradi. Suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilar tuzilishi jihatidan changsimon achitqilarga o'xshaydi

ular bir birlari bilan birikmasliklari bilan pag'a –pag'a ko'rinishidagi achitqilardan ya'ni suyuqlik ichida bijg'uvchi achitqilardan ajralib turadilar. Suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilarning qobiq qavatida yopishqoq bo'lganligi uchun hujayralar tez cho'kmaga tushadi.

Suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilar bijg'iyotgan suyuqlikda ko'payganligi bilan ular suyuqlik yuzidagi ko'pik qavatiga o'tib ketmaydi, balki bijg'ish jarayoni tugagach bijg'itish chanining tubida tez qalin qatlamli cho'kma hosil qiladi.

Suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilar rafinozani to'liq bijg'itish xususiyatiga ega ekanliklari bilan suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilardan farq qiladi. Suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilar rafinozani umuman parchalamaydi. Bu achitqilarning ayrim turlarigina rafinozani 1/3 qisminigina bijg'itishi mumkin. Bu asosiy farqni aytib o'tilgan achitqi turlarining ferment kompleksida α - galaktoizidaza mavjudligi bilan izoh lash mumkin.

Madaniylashtirilgan achitqilardan suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilarga sharob va pivani bijg'ituvchi achitqilar, suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilarga esa spirtli, xamirturushli va piva achitqilarining ayrim rasalarini kiritish mumkin. Har hil sharbatlarni bijg'itish jarayoni oddiy haroratda borganligi uchun dastlab suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilar ma'lum bo'lgan. Keyinchalik SO₂ gazi bilan to'yingan ichimliklarga talab ortib borganligi sababli ularni yaratish uchun bijg'ish jarayonini past haroratda o'tkaza boshladilar. Natijada tashqi sharoitni o'zgarishi ta'sirida suyuqlik sirtida bijg'ituvchi achitqilarni xususiyatlarini saqlagan holda suyuqlik ichida bijg'ituvchi achitqilar hosil bo'ldi va hozirda bu achitqilardan keng foydalanilmoqda.

Achitqilar qaysi korxonada ishlatilishidan qat'iy nazar ularning umumiy xususiyatlaridan tashqari ular spetsifik ko'rsatgichlarga ham ega. Bir yoki bir nechta o'ziga xosligi bilan farq qiluvchi turli achitqilar ishlatiladi. Ularni bitta hujayradan ajratib olinadi. Bunday kulturalarni rasa yoki shtamm deb yuritiladi.

Yordamchi materiallar, chiqindilar, ulardan foydalanish

Solod va don mahsulotlaridan suslo va pivo tayyorlash natijasida quyidagi chiqindilar chiqadi: pivo drojjisi, xmel drojjasi, oqsil cho'kmasi, qoldikli pivo achitqilari va CO₂.

Pivo drojjasi – pishirish sexining chiqindisi. Qayta ishlatadigan 100 kg don mahsulotlaridan 125- 130 kg nam drojjisi (quruq moddalarni miqdori 20 – 25 %) chiqadi. U mollarga sufatli yem bo'lib ushlatiladi, chunki uni tarkibida (quruq moddalar % da) ekstraktiv azotsiz moddalar 41%, oqsil moddalar 25%, moy 8,2%, kletchatka 17,5% va kul 5,2% bordir.

Bizning zavodlarimizda drobina quritilmaydi, chunki bu bizning sharoitimizga to'g'ri kelmaydi. Butun nam pivo drobinasi (namligi 80 – 85 %) sovxoz va kolxozlarga berib yuborishadi. Xmel drobinasi hozirgacha hech quruq ishlatilmaydi. Tarkibida, achchiq xmel mazasi ko'p miqdorda bo'lgani uchun uni kam miqdorda ham hayvonlar uchun yemish ishlatga bo'lmaydi. 85% bo'lgan 4kg xmel drobinasini chiqadi. Bir xil zavodlarda uni ko'mir bilan kuydirishadi. Oqsil ko'chmasi tindirish apparatida yoki suslo separatorida susloni so'vitganda va tindirganda hosil bo'ladi. 100 kg solod va don mahsulotlariga 80% bo'lgan 2-3 kg oqsil cho'kmasi olinadi. Bu chiqindi ham mol yemishida ishlatilmaydi, mazasi achchiq bo'lgani uchun. Hozirgi kunda oqsil cho'kmasi kanalizatsiyaga tashlanadi.

Qoldiq pivo achitqisi yuqori sifatli ozuqaviy mahsulot bo'lib, tarkibida oqsillar, uglevodlar, yog'lar va vitaminlar kiradi. Ular vitamin B omili uchun eng yaxshi vosita hisoblanadi. Tarkibida vitaminlari ko'p bo'lgani sababli pivo achitqilari fiziologik qiymatga ega va davolashda keng foydalaniladi.

Bijg'ish tayyorlashda hosil bo'ladigan CO₂ tavar mahsulotiga aylantirish mumkin. Suyuq yoki qattiq uglevod 4 oksidi, quruq muz ataladi. Bijg'ish apparatida olib borilganda 100 l tovar pivoga 1,2 – 1,5 kg tovar suyuq uglekislota olinadi.

II.Hisoblash qismi.

Uskuna hisobi

Bitiruv ishining topshirig'iga binoan 1,6 mln dal pivo ishlab chiqarish uchun nechta pishirish agregati kerakligini hisoblaymiz.

Buning uchun korxonada bir kunda sarflanadigan doli xomashyo miqdorini aniqlash kerak. Ya'ni:

$$Q_{sut} = \frac{Q_{yil}}{P_{yil}}$$

Bunda: Q_{sut} - bir kunlik donli x/a = sarfi, T

Q_{yil} - bir yildagi donli x/a= sarfi, T

P_{yil} - pishirish bo'limi 1 yildagi ish kuni.

$$Q_{sut} = \frac{3488}{323} = 10,8 T$$

Pishirish bo'limida bir kunda 15,1 donli x/a sarflanar ekan. Demak, pishirish agregatini tanlash uchun quyidagi jadvaldab foydalanamiz.

Pishirish agregatini tafsifi

Pishirish agregati	Pishirish agregatining oberachivaemost koeffisenti						
	Solodli x/a	Donli x/a 15%dan yuqori	0,5	1,0	45	3,0	5,5
Ikki sig'mli	2,0	-	1,0	2,0	-	-	-
To'rt sig'mli	4	-	-	4,0	6,0	12,0	22
		3,6	1,8	3,6	5,4	10,8	19,8
Olti sig'mli	6	-	-	6,0	9,0	13,0	33,0
		5,4	-	5,4	8,1	16,2	29,7

Bitta zator tayyorlash uchun 3,0 m zasip ketadigan to'rt sig'imli agregat tanlab olinib kuniga 12,0 m donli maxsulot qayta ishlovchi va kuniga 4ta zator tayyorlanadi.

Bitta zator tayyorlash uchun ketadigan zator va zasip miqdori

Bir yillik zator miqdori:

$$3488 : 3,0 = 1162,7$$

$$4880 : 3,0 = 1626,7$$

Pivo navi	Zatorlar soni		1 zator dan dalga				Chiqishi o'tishi	
	1 kunda	1 yilda	Issiq suslo	Sovuq suslo	Yosh pivo	Lagerniy pivo	Filtr pivo	Tayyor pivo
Patriot 2	5,4	1626,7	1390,2	1306,7	1276,6	1266,4	1246,6	1227,3
Sarbast extra	4	1162,7	1564,8	1470,9	1437,0	1422,7	1398,2	1376,6

$$100 \text{ kg} - 52,159$$

$$x = \frac{52,159 * 3000}{100} = 1564,8$$

$$3000\text{kg} - x$$

Solodni qayta ishlash liniyasi

Jilo beruvchi uskuna ustidagi bunker

Bir kunda tayyorlanadigan zator uchun solodning miqdori bunkerga sig'ishi kerak. Bizga ma'lumki, 4 marta zator tayyorlanadi. "Sarbast extra" pivosini, 1ta zatori tayyorlash uchun 3,4 donli maxsulot ketadi. Solodga jilo berishidagi yoqotishlari miqdori (solodning massasiga 0,5%) e'tiborga olsak, bir kunlik sarflanadigan solodning miqdori quyidagiga teng bo'ladi.

$$3,0 * 4 + \frac{3,0 * 4 * 0,5}{100} = 12,06 \text{ T}$$

Saqlangan solod hajmi $0,53\text{m}^3$ va to'ldirish koeffitsenti 0,9 bo'lganda:

$$\frac{12,06}{0,53 * 0,9} = 25,3 \text{ m}^2$$

Jilo beruvchi uskuna

Bitta zator tayyorlash uchun arpaga 2 soat jilo beriladi, deb qabul qilsak, unda 1 soatda jilo berish uchun keladigan don miqdori quyidagicha

$$3,0 : 2 = 1,5 \text{ m/soat}$$

Hisobga ko'ra, bizga soatiga 1t/soat ishlaydigan CII – 54 markali uskunani olamiz.

Jilo beruvchi uskunadan chiqqan chiqindilar uchun bunker

Bir kunda chiqqan chiqindi miqdori:

$$\frac{3,0 \cdot 4 \cdot 0,5}{100} = 0,06 \text{ T}$$

Chiqindining og'irlik hajmi $0,4\text{m}^3$ va 5 kunlik saqlashda bunkerni to'ldirishi ko'effetsenti 0,9 bo'lsa, bunkerni hajmi shunday

$$\frac{0,06 \cdot 5}{0,4 \cdot 0,95} = 0,79 \text{ m}^3$$

Avtomatik torozlar

Ishlab chiqarish quvvati 1,5 – 6 t/soat bo'lgan D – 20 markali avtomatik tazorlarni qbul qilamiz.

Don maydalagich

Arpani 2 soat davomida maydalanadi deb qabul qilamiz.

$$3,0 : 2 = 1,5\text{t/soat}$$

Ishlab chiqarish quvvati 2,5t/soat bo'lgan “Mlach” GDR markali don maydalagich olamiz.

Maydalangan arpa uchun bunker

Bitta zator uchun bunker hajmi 3,0 bo'lsa, har bir tonna maydalangan yordamchi mahsulot uchun 3m^3 egallasa, shunda bunkerni hajmi:

$$3,0 \cdot 3 = 9,0\text{m}^3$$

Zator og'irligini aniqlash

Zator aniqligini aniqlash uchun suvning og'irligini bilish kerak. Ekstraktivligi solodni 76% va susloning zichligi 13% bo'lganda, 100 kg donli mahsulotni birligi “posev” uchun sarf bo'lgan suvning miqdorini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$76 \frac{(100-13)}{13} = 509 \text{ kg}$$

Agar 100kg donli mahsulot uchun 509 kg suv ketsa, u holda 3,0 t uchun sarf bo'ladigan suv quyidagicha:

$$\frac{3000*509}{200} = 15270 \text{ kg}$$

Zatorning umumiy og'irligi $3000+15270 = 18270$

Zator uchun nasos

Zator massasini umumiy hajmi

$$\frac{18270}{1,0442*1000} = 17,5 \text{ m}^3$$

Bu yerda 1,0442 – zatorning udel vesi t/m^3 . Nasos zator massasini filtr – changa 20 min.da haydaydi deb qabul qilsak, u holda uning ishlash quvvati:

$$\frac{17,5*60}{20} = 52,5 \text{ m}^3$$

Zatorni haydash uchun bizga bir pog'onali ΦF – sentrabejniy tipidagi nasos ishlatiladi.

Drobina uchun nasos

Filtr-changdan brobina 15 min davomida haydab olinadi. 100 kg donli mahsulotdan tayyorlangan zatorda drobina miqdori 189,2kg bo'ladi. 3000 kg da esa:

$$\frac{189,2*3000}{100} = 5676 \text{ l}$$

Drobinadan haydash oson bo'lish uchun 1 kg drobinaga 4-5 l suv aralashtiriladi, shunda aralshgan drobinaning hajmi:

$$5676 * 4 = 22704 \text{ l yoki } 22,7 \text{ m}^3$$

Haydash 15 min davom etadi, nasosning ushlab quvvati

$$\frac{22,7*60}{15} = 90,8 \text{ m}^2/\text{soat}$$

Drobinani haydash uchun bizga bir pog'onali sentrobejniy $\Phi \Gamma$ markali nasos kerak bo'ladi.

Susloning haydash uchun nasos

“Sarbast extra”pivosi uchun bitta zatordan chiqqan suslo miqdori 1564,8 dal yoki 15,65m³/soat.

Nasos 30 min davomida haydasa, nasosning shu quvvati:

$$\frac{15,65 \cdot 60}{30} = 31,3 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Issiq susloni haydash uchun bizga bir pog'onali sentrabejniy konsol tipidagi nasos kerak bo'ladi.

Filtrlanmagan suslo uchun nasos

Filtrasiyaga kaytarilgan filtrlangan (tinmagan) susloni hajmi, zatorning hajmidan 10% ni tashkil qilsa va u 10 min davom etsa, kelib chiqqan natijalarga qarab nasos tanlaymiz. Nasosni ishlash quvvati quyidagicha:

$$\frac{17,5 \cdot 0,1 \cdot 60}{10} = 10,5 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Ish quvvati 400 dal/soat bo'ladigan “Senpisheats” markali nasosni qabul qilamiz.

Yuvindi (yuvish) suvlari uchun bak

Filtr-changdan chiqqan yuvindi suvni yig'ish ucun va uni keyingi zator tayyorlash uchun ishtatishga, ikkta zator uchun 1 t donli mahsulotga sig'imi 2,4m³ bo'lgan yuvindi suvlar uchun bak kerak. Bakning sig'imi quyidagicha:

$$2,4 \cdot 2 \cdot 3,0 = 14,4 \text{ m}^3$$

Bakning shakli silindrsimon bo'lib, tagi tekis. Bo'yi diametriga nisbatan 3 m ni tashkil etadi

$$H = \frac{4 \cdot 14,4}{3,14 \cdot 9} = 2,0 \text{ m}$$

Yuvindi suvlarni haydash uchun nasos

Zator tayyorlash uchun yarmini olishadi va 20 minut davomida haydaladi. Ish quvvati:

$$\frac{14,4 \cdot 60}{2 \cdot 20} = 21,6 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Ishlash quvvati 400 dal/soat bo'lan "Lempishelash" markali nasosni olamiz.

Xmel (qulmoq) turpini ajratuvchi chan

Qaynatishi qozonini hajmiga qarab aniqlanadi. To'rt sig'imli 3,0 m agregat uchun Б7 – БХБ xmel ajratuvchi chan qabul qilinadi.

Drobina uchun chan

Uni korxona xovlisiga o'rnatiladi. Hisob-kitobga ko'ra, 1ta zator uchun drobina miqdori 14,7 m³ bir kunda zator miqdori 3,4. To'ldirish koeffitsentini hisobga olsak changing hajmi quyidagiga teng:

$$100 \text{ kg} - 4,9$$

$$x = 147000 = 14,7 \text{ m}^3$$

$$3000000 \text{ kg} - x$$

$$\frac{14,7 * 5,4}{0,9} = 88,2 \text{ m}^3$$

Sharbatni sovutish bo'limi. Tindirish chani.

Qaynatish qozonining hajmiga qarab uskuna aniqlanadi. To'rt sig'imi 3,0 m agregat uchun БОЧ – 3 chan qabul qilamiz.

Susloni tindirish uchun separator. Bitta varnaning susloni tindirilishi 2 soatdan oshmasligi kerak. Demak 1 soatda $1564,8 : 2 = 782,4$ dal/soat yoki 7824 l/soat. Ish quvvati 10000 l/soat BCC – 2 markali bitta separator qabul qilamiz.

Bijg'itish bo'limi

Hisob to'ldirish, bo'shatish va sanitar tozalash (14 kun davomida), hamda bijg'itish va bijg'ish davom ettirishiga (12 sutka) olib boriladi.

Bir yildagi aylanma sikli:

$$338 : 14 = 24,14 \text{ marta}$$

UKT to'liq hajmli 95 m³, to'ldirish koeffitsenti 0,85 bo'lsa, UKT hajmli

$$95 * 0,85 = 80,75 \text{ m}^3$$

Stildagi sovuq suslo hajmi 1710400 dal yoki 17140 m³.

SKT kerak bo'lgan miqdori:

$$17104 : 24,14 : 80,75 = 8,8 \text{ sm}$$

9 ta qabul qilamiz.

Monjyu : 10 l bijishi susloga beriladigan achitqilar miqdori 0,5 l – suv bilan. 1 : 1 miqdorda achitqilar sugoltirganda va 2 kun davomida saqlashda, to'ldirish koeffitsientini xisobga olganda apparat hajmi:

$$\frac{1710400 \cdot 0,5 \cdot 2 \cdot 2}{338 \cdot 10 \cdot 0,80} = 1265 \text{ l}$$

Ustanovkaga 1000 l hajmli 2 monjyu qabul qilamiz.

SKT ni ichiga achitqilarni qo'shganda quyidagi hajimli monjyu o'rnatamiz:

$$807,5 \cdot 0,5 \cdot 2 \cdot 1,15 = 928,6 \text{ l}$$

Ustanovkaga 1000 l hajmli monjyu qabul qilamiz. Ortiqcha (izbitochnie) achitqilar uchun sborniklar:

Cho'kmali achitqilar chiqimi SKT da bijitilganda 4 marta ko'p qo'shilganda nisbatan

$$\frac{1710400 \cdot 0,5 \cdot 4}{338 \cdot 10} = 1012 \text{ l}$$

2 kun davomida saqlanganda va 1 : 0,3 nisbatda sug'ortirganda kerakli hajmi:

$$1012 \cdot 2 \cdot 1,3 = 2631,2 \text{ l}$$

Ustanovkaga 2 m³ hajmli har bittasi, 2 ta sbernik qabul qilamiz.

Plastinkali issiqlik almashinish qurilmasi

Sharbatni sovitish uchun bizga 1ta plastinkali, ishlash quvvati 10000 l/soat bo'lgan 001 – J10 markali issiqlik almashinish qurilmasi qabul qilinadi. (T/o ish quvvati separator ishi quvvatiga teng bo'lishi kerak).

Tayyor pivo uchun nasoslar.

Nasosning ishlab chiqarishi quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{V_m}{238 \cdot 16}$$

Bu yerda: V_m - yillik "Lager" pivo miqdori

238 – quyish bo'limining yillik ish kuni

16 – 1 kunlik ish davomiyligi

$$\frac{1652800}{238 \cdot 16} = 434 \text{ dal/soat}$$

HB – 2 markali ishlab chiqarish quvvati 5 m³/soat bo'lgan nasosdan 2 ta tanlaymiz.

Pivoni filtrlash bo'limi

Pivoni separator yoki filtrda filtrlasah mumkin. Filtrlash uchun 735 dal/soat pivo keladi. Bu pivoni filtrlash uchun ishlab chiqarishi quvvati 600 dal/soatga teng P3–БФД–25 markali 2 ta filtr qabul qilamiz.

Pivoni sovitish uskunalari

Tiniq pivo 0,5 °C gacha sovitiladi. Buning uchun BO1 – U5 markali 2ta plastinkali issiqlik almashinish uskunasi qabul qilamiz. Uning ishlab chiqarish quvvati 500 dal/soat.

Karbonizator

Bu uskuna pivoni CO₂ gazi bilan to'ntirish uchun ishlatiladi. Ishlab chiqarish quvvati 600 dal/soat bo'lgan BKII – 6 markali karbonizatorni qabul qilamiz.

Shpunt apparati

Shpunt apparatini soni “Lager” tanklarni soniga qarab tanlanadi, ya'ni 49ta.

Filtrlangan pivo uchun sig'm

Quyish bo'limini bir kunlik ish kunini ta'minlash uchun quyidagi formula orqali forfasni hajmini hisoblaymiz:

$$V = \frac{\pi D^2}{4} * 4,6 * 0,9 = \frac{3,14 * 2,8^2}{4} * 4,6 * 0,9 = 25,5 \text{ m}^3$$

Forfasni hajmi 20m³ desak, uning diametri 2,8 m, balandligi 4,6 metr, uning to'ldirish koeffitsienti 0,9.

Yozgi mavsum uchun ikkta sig'm bo'lishi kerak bo'lsa, shunda sig'im soni

$$n = \frac{V_n}{238 * V} = \frac{1625600}{238 * 2530} = 2,7 \approx 3$$

V_n - yig'imlik filtrlangan pivo

Mahsulot hisobi

Hisoblash uchun 100 kg donga nisbatan hisoblash olib boriladi.

Pishirish sexidagi ekstraktning miqdorini aniqlash 100 kg donli mahsulotdan foydalaniladi. Pivo 70 % och soloddan va 30 % yordamchi mahsulotlardan foydalaniladi. Bizada 70 % och rangli solod va 30 kg arpa uzi berilgan. Solodga jilov berishdagi yoqotishlar massaga nisbatan:

Q- mahsulot miqdori

$$Q' = 70 \text{ kg solod}$$

$$Q'' = 30 \text{ kg arpa uni}$$

Normativ bo'yicha yoqotish miqdori, Π_n

$$\Pi_n = 0.5\%$$

Jilo berishdagi yo'qatishlar miqdori, Q_n

$$Q_n = Q' * \frac{\Pi_n}{100} = 70 \frac{0.5}{100} = 0.35 \text{ kg}$$

Jilo berilgan solodning miqdori: Q_{nc}

$$Q_{nc} = Q' * \frac{100 - \Pi_n}{100} = \frac{100 - 0.5}{100} * 70 = 69.65 \text{ kg}$$

Arpaning namligini 5.6 deb qabul qilsak, arpa uninig namligi 15 % bo'lsa, quruq moddaga nisbatan soloddagi quruq modda miqdori:

$$W' = 5.6\% \text{ solod namligi}$$

$$W'' = 15\% \text{ arpa uninig namligi}$$

Solod unidagi quruq modda miqdori, Q_{cb}

$$Q'_{cb} = Q_{nc} \frac{100 - w'}{100} = 69.65 * \frac{100 - 5.6}{100} = 65.75 \text{ kg}$$

Arpa unidagi quruq modda miqdori, Q''_{cb}

$$Q''_{cb} = Q''_{nc} \frac{100 * W''}{100} = 15 \frac{100 * 15}{100} = 12.75 \text{ kg}$$

Solodnig ekastraktivligi

$\varepsilon' = 76.4\%$ solodning ekstraktivligi

$\varepsilon'' = 64.35\%$ arpa uni ekstraktivligi

Solod tarkibidagi ekstraktiv moddalar miqdori, $Q'_{\varepsilon b}$

$$Q'_{\varepsilon b} = Q'_{cb} \frac{\varepsilon'}{100} = 65.75 * \frac{76.4}{100} = 50.23 \text{ kg}$$

Arpa unidagi ekstraktiv moddalar miqdori, $Q''_{\varepsilon b}$

$$Q''_{\varepsilon b} = Q''_{cb} \frac{\varepsilon''}{100} = 12.75 * \frac{64.35}{100} = 8.2 \text{ kg}$$

Quruq moddalarning umumiy miqdori: Q_{cb}

$$Q_{cb} = Q'_{cb} + Q''_{cb} = 65.75 + 12.75 = 78.50 \text{ kg}$$

Ekstraktiv moddalarning umumiy miqdori, $Q_{\varepsilon b}$

$$Q_{\varepsilon b} = Q'_{\varepsilon b} + Q''_{\varepsilon b} = 50.23 + 8.2 = 58.43 \text{ kg}$$

Pishirish bo'limidagi ekstraktivlarni yoqotishlar miqdori Π_{ε} donli maxshulot massasiga nisbatan 2.6% ni tashkil etadi.

$$\Pi_{\varepsilon} = 2.6\%$$

$$Q_{\Pi_{\varepsilon}} = Q * \frac{\Pi_{\varepsilon}}{100} = 100 * \frac{2.6}{100} = 2.6 \text{ kg}$$

Demak suslo tarkibidagi chiqadigan ekstraktiv moddalarning miqdori, ε_c

$$\varepsilon_c = Q_{\varepsilon b} - Q_{\Pi_{\varepsilon}} = 58.43 - 2.6 = 55.83 \text{ kg}$$

Pishirish jarayonidagi oraliq maxsulotlar va tayor pivo miqdorini aniqlash.

Maxsulotlar hisobi bo'yicha pivo uchun issiq sharbat tarkibidagi ekstraktiv moddalar 55.83 kg ga teng ekan sharbatning og'irligi sharbat ekstraktivligining boshlang'ich sharbatdagi quruq modda miqdorining og'irlik ulushi (e) pivo uchun $e=12\%$ bo'lsa shrbatning og'irligi:

Q_c -sharbat og'irligi

$$Q_c = \varepsilon_c * \frac{100}{e} = 55.83 * \frac{100}{12} = 465.25 \text{ kg}$$

20⁰ c da sharbatning hajmi α -zichligi:

V_c - sharbat hajmi

$$V_c = \frac{Q_c}{d} = \frac{465.25}{1.0442 \cdot 10} = 44.556 dal$$

Sharbatni 100% gacha qaynatganda issiqlikda kengayish koeffitsienti 1.04 ga teng. Koeffitsientini etiborga olganda issiq susloni hajmi quydagiga teng.

V_{tc} - issiq suslo hajmi

$$V_{tc} = 44.556 \cdot 1.04 = 46.338 dal$$

Sharbatni sovutish va tindirishdagi solod va xmel drobilkasi bilan sharbatning yo'qotishdagi miqdori

$\Pi_{xc} = 6\%$ (issiq sharbatga nisbatan) sovuq sharbat soni

$$\Pi_{xc} = V_{tc} \frac{100 - \Pi_{\delta a}}{100} = 46.338 \frac{100 - 6}{100} = 43.557 dal$$

Filterlangan va filterlanmagan pivoning miqdori bijg'ish jarayoninig qaysi usulda olib borilishiga bog'liq.

Bijg'itish jarayoni davriy yoki uzviy usulda olib boriladi.

Davriy usulda bijg'ish jarayonini olib borish. Boshlang'ich bijg'ish bo'imida yo'qotishlar miqdori V_{ir} , sovuq sharbat hajmiga nisbatan $n=2.3\%$ formula bilan aniqlanadi:

$$V_{MI} = V_{xc} \frac{100 - \Pi_{\delta}}{100} = 43.557 \frac{100 - 2.3}{100} = 42.555 dal$$

Pivoni yetishtirish va filterlash bo'limidagi yo'qotishlar

filterlash bo'limidagi yo'qotishlar 1.55%. pivoni yetishtirish bo'limidagi yo'qotishlar 2.35% yosh pivoni hajmiga nisbatan, shundan kelib chiqqan holda bijg'itish davom etilishidagi yo'qotishlar quydagicha topiladi.

$$\Pi_{\delta} = \Pi_{\delta\phi} - \Pi_{\phi} = 2.35 - 1.55 = 0.8$$

Filterlanmagan pivoning hajmi

$$V_{m\phi} = V_{MI} \frac{100 - \Pi_{\delta}}{100} = 42.555 \frac{100 - 0.8}{100} = 42.214 dal$$

Filterlangan pivaning hajmi

$$V_{\phi n} = V_{mn} \frac{100 - \Pi_{\phi p}}{100} = 42,555 \frac{100 - 2,35}{100} = 41,555 dal$$

Tovar pivoni butilkalarga quydagi yo'qotishlar 2%, bo'chkalarda 0.5 % filterlangan pivoning hajmiga nisbatan. Agar ishlab chiqarilayotgan 100% Tovar pivoning 70% ni butilkaga quyilsa va 30%i bochkalarga quyilsa o'rtacha yo'qotishlar miqdori Π'_p quydagilarga teng bo'ladi:

$$\Pi'_p = \frac{2 * 70 + 0.5 * 30}{100} = 1.55\%$$

Tovar pivoning miqdori

$$V_{\Pi} = V_{\phi \Pi} \frac{100 - \Pi'_p}{100} = 41,555 \frac{100 - 1,55}{100} = 40,910 dal$$

Suyuq faza bo'yicha umumiy chamalangan yo'qotishlar issiq sharbat hajmi va tovar pivoni hajmi ayirmasiga teng

$$V_{y\ddot{u}} = 46,338 - 40,910 = 5.428 dal$$

yoki issiq sharbatni nisbatiga qarab olinadi

$$V_{y\ddot{u}} = \frac{5,428}{46,338} * 100 = 11,71 dal$$

Xmel va ferment priparatlarning sarfi.

Xmelning sarfi 2 hil usulda aniqlanadi:

- 1) Xmel tarkibidagi taxir moddalarning miqdorini hisobga olmagan xolda norma bo'yicha;
- 2) Xmel tarkibidagi α kislota va namlikni hisobga olgan xolda norma bo'yicha solish mumkun.

Birinchi usul bo'yicha 1 dal tayyor pivo uchun 100 kg xom ashyodan olingan pivoning miqdoriga ko'paytiriladi.

$$Q_x = \frac{V_{\Pi} * H_x}{1000}$$

H_x - norma bo'yicha solingan xmel miqdori

1 dal uchun normal 30 gr xmel sarflangan deb olamiza:

$$Q_x = \frac{40.910 * 30}{1000} = 1.22 \text{ kg}$$

Ferment preparatlarning sarfi

Ferment preparatlari “Havo-bordeks” firmasi orqali keltiriladi va korxonaning rekomendatsiyasi bo’yicha ularning miqdori belgilangan sirimiksulus m_r 2,2 kg, 0.45 kg.

1m don uchun be ferment zator tayyorlash vaqtida (42-45 °C) da ishlatiladi.

Termomil 0.2kg 1m donga bu ham zator tayyotlashda ishlatiladi va bular kraxmallni parchalanishiga yordam beradi.

Netroza 1m donga 0.16 kg ishlatiladi

Migum 6-7 g 1 dal issiq sharbat uchun.

Netroza - zator tayyorlashda ishlatiladi, oqsillarning parchalanishiga yordam beradi.

Migum – sharbat qaynatishni so’ngida qo’shiladi. U sharbat tarkibidagi oqsillani cho’kmaga tushiradi.

Fungamil 1 dal sovuq susloga 0.1 g ishlatiladi. Achitqi berilgandan so’ng achitqiga ozuqa sifatida beriladi.

Konsentratsiyasi 100 % li sut kislotasi zatorni kislotaligini oshirish maqsadida ishlatiladi 100 kg maxsulotga 0.08 kg sut kislotasi qo’shiladi.

Chiqindilar miqdorini aniqlash 100 kg donli maxsulot uchun solod va xmel drobinasi, sperator xmel jadvaldan olinadi.

Davriy usulda bijg’itilgan suslong 10 daliga 0.8 l namligi 0.88 % bo’gan ortiqcha achitqi miqdori hosil bo’ladi.

Shundan kelib chiqqan holda 100 kg maxsulotga ortiqcha achitqi miqdori:

$$\frac{V_{xc} * 0.8}{10} = \frac{43.557 * 0.8}{10} = 3.48 \ell$$

Solod drobinasi: W=88% 100kg donli maxsulotga nisbatan kg dan 201.4kg

Xmel drobinasi: W=85% 100kg donlimaxsulot uchun 4.9kg

Separator shlangi: W=80% 100kg donli maxsulot uchun 1075kg

Ortiqcha achitqilar miqdori $W = 88\%$ 10 dal bijg'iyotgan susloga nisbatan 1 da 0.8l ga teng.

CO_2 gazi 1 dal tayyor pivo uchun gr da 150 gr.

Xom ashyo va maxsulotlar sarfining normalari

Xom ashyo va maxsulotlar	100kg donli xom ashyo uchun	1 dal pivo uchun	1 mln dal pivo uchun
Donli xom ashyo kg			
Och rangli solod	70	1.71	1710000
Arpa uni	30	0.73	730000
Jami	100	2.44	2440000
Xom ashyoning boshqalari			
Xmel	1.22	0.03	30000
Ferment preparatlar	0.71	0.017	17000
Oraliq maxsulot va tovarlar pivo, dal:			
Issiq sharbat	46.338	1.133	1133000
Sovuq sharbat	43.557	1.065	1065000
Yosh pivo	42.555	1.04	1040000
Filterlanmagan pivo	42.214	1.032	1032000
Filterlangan pivo	41.555	1.016	1016000
Achitqilar		0.053	53000
Tovar pivo	41.910	1.0	1000000
Chiqindilar :			
Solod drobinasi	201.4	4.92	4920000
Xmel drobinasi	4.9	0.12	120000
CO_2 gazi	-	0.15	150000
Jilov berishdagi	0.43	0.01	10000
chiqindilar	-	0.2	20000
To'rilangan pivo xatosi	1.15	0.043	43000
Separator shlami	-	0.085	85000
Ortiqcha achitqi			

Issiqlik, gidravlik va mexanik hisobi.

Bijg'itish tankida issiqlik yo'qotishlarini xisobi.

Tankning devorlari, tagi va qopqog'inig yuzasi $F=42\text{ m}^2$.

Bijg'itishi devorida chan devorinig harorati $t_{dev} = 10^\circ\text{C}$

Binodagi havo xarorati $t_x = 6^\circ\text{C}$

Bijg'itish bo'limining isitilmaydigan binodagi germetik yopilgan po'lat chandan issiqlik yoqotilishini hisoblash kerak.

$$T = 2\pi rl + 2 * 2\pi rl$$

Bijg'ish rezervuarining hajmini 20 m^3

$$l_1 = 400 \quad ml$$

$$l = 5750 \quad ml$$

$$r = 1000 \quad ml$$

$$F = 2 * 3.14 * 1000 * 5750 + 4 * 3.14 * 1000 * 400 = 36110000 + 5024000 = \\ = 41134000\text{ ml}^2 = 41.134\text{ m}^2 \approx 42\text{ m}^2$$

Nur o'tishi orqali issiqlik yo'qotish quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$Q_u = C_{1-2} \varphi F \left[\left(\frac{T_1}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_2}{100} \right)^4 \right] \text{ kkal/soat yoki Vt}$$

Bu yerda C_{1-2} - qoralik darajasiga va nurlanadigan yuzalarning o'zaro joylashishiga bog'liq bo'lgan nurlanish koefitsenti, $\text{kkal}/(\text{m}^2 * \text{soat} * ^\circ\text{K}^4)$ yoki $\text{Vt}/(\text{m}^2 * ^\circ\text{K}^4)$;

φ – burchak koefitsenti;

F – nurlanish yuzasi; m^2

T_1, T_2 - har hil haroratdagi yuzaning absalyut haroratlari, $^\circ\text{K}$.

Nurlanish koefitsenti aniqlashda $\tilde{N}_{1-2}$ ni quydagicha qo'llash kerak:

Agar nurlanish yuzasi F_1 bo'lgan uskuna, nurlanish yuzasi F_2 bo'lgan bino ichida bo'lsa bunda burchak koeffisienti $\varphi=1$ teng bo'ladi. Hisoblash tenglamasiga uskunaning yuzasi qollaniladi ($F_1 = F_2$) va

$$C_{1-2} = \frac{1}{\frac{1}{C_1} + \frac{F_1}{F_2} \left(\frac{1}{C_2} - \frac{1}{C_{ch}} \right)}$$

Bunda, $C_1 = \varepsilon_1 C_{ch}$ - uskuna devorlarining nurlanish koeffisienti;

$C_2 = \varepsilon_2 C_{ch}$ - bino devori yuzasining nurlanish koeffisienti;

C_{ch} - absolyut qora jismning nurlanish koeffisienti;

$C_{ch} = 4.9 \text{ kkal} / (m^2 * \text{soat} * ^\circ K^4)$ yoki $C_{ch} = 5.7 \text{ Wt} / (m^2 * ^\circ K^4)$

$\varepsilon_1, \varepsilon_2$ - uskuna va binolari yuzasining qoraligini darajasi;

Agarda nurlanuvchi yuzalar nisbati $\frac{F_1}{F_2}$ juda kichik bo'lsa, unda $\tilde{N}_{1-2}$ nurlanish koeffisientini $\tilde{N}_1$ gat eng deb qabul qilish mumkin.

